



Inomjon AZIMOV,
ToshDO'TAU dotsenti, f.f.d
E-mail: inomjon66@mail.ru

BuxDU professori, f.f.d. B.Jo 'rayeva taqrizi asosida

IMLO QOIDALARINI TUZISH TAJRIBASIDAN

(2-maqola)

Annotatsiya

“Chig'atoy gurungi” tomonidan ishlab chiqilgan imlo qoidalarini hali dastlabki tajriba bo'lganligi uchun kamchiliklardan holi emas edi. Natijada imlodagi buzluqliklar davom etdi. Hatto gazetalarda ham so'zlarning turlicha yozilish, sheva so'zlarining qo'llanilish holatlari kuzatildi. Ayniqsa, xorijiy so'zlarning singarmonizm qonuniga moslashtirish, arabcha so'zlarning yozilishi xususida jadidlar o'rtasida turlicha qarashlar mavjud edi. Shuning natijasida yanada mukammalroq imlo qoidalarini tuzish uchun harakatlar boshlanadi. 1926-yilda tuzilgan “Maorif va o'qutg'uchi” jurnalining 7-8-sonlarida e'lon qilingan imlo qoidalarini mazkur harakatning natijasi edi. Maqolada ushbu imlo qoidalarini xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: jadid, “Chig'atoy gurungi”, imlo, tovush, cho'zg'i, harf, singarmonizm, qalinlik, ingichkalik, ism, fe'l, me'yor.

РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ОПЫТЕ СОСТАВЛЕНИЯ ПРАВИЛ ПРАВОПИСАНИЯ

(2-статья)

Аннотация

Правила правописания, разработанные «Чагатай Гурунги», все еще находились на экспериментальной стадии и, как таковые, не были лишены недостатков. Следовательно, в правописании постоянно наблюдались несоответствия. Даже в газетах наблюдались различия в написании слов и использовании диалектных терминов. В частности, среди джадидов существовали различные мнения относительно адаптации иностранных слов к закону гармонии звуков и орфографии арабских слов. В результате начались усилия по разработке более совершенных правил правописания. Правила правописания, опубликованные в выпусках 7-8 журнала «Маориф ва укутгучи» в 1926 году, стали результатом этих усилий. В этой статье обсуждаются эти правила правописания.

Ключевые слова: джадид, «Чигатайские беседы», орфография, звук, гласный, буква, сингармонизм, твердый гласный, мягкий гласный, существительное, глагол, норма.

REFLECTIONS ON THE EXPERIENCE OF COMPILING SPELLING RULES

(Article 2)

Annotation

The spelling rules developed by the “Chagatai Gurungi” were still in the experimental stage and, as such, were not without flaws. Consequently, there were ongoing inconsistencies in spelling. Even in newspapers, variations in the spelling of words and the usage of dialectal terms were observed. In particular, there were differing opinions among the Jadids regarding the adaptation of foreign words to the law of harmony of sounds and the orthography of Arabic words. As a result, efforts began to develop more refined spelling rules. The spelling rules published in issues 7-8 of the “Maorif va o'qutg'uchi” journal in 1926 were the outcome of these efforts. This article discusses these spelling rules.

Keywords: Jadid, “Chigatai Talks”, spelling, sound, stretch, letter, harmony of sounds, thickness, thinness, noun, verb, norm.

Kirish. Elbek imlo muammosi haqida shunday yozadi: “Bizning bu kungacha qo'llanilib kelmakda bo'lgan imlomiz iki turli edi: biri chig'atoy imlosi va 2-nchisi eski imlo. Bu imlodan eski imlo atag'an imlomiz burun choqlardan beri bir yo'sunsiz, negizsiz yozilib kelmakda bo'lg'an bir imlodurkim, buning bilan bir narsani ochiq anglov juda qiyindir. Chunki bir so'zni bir necha turli o'qimoq mumkin bo'lg'onlikdan kishi ko'b yanglishadir. Demak, eski imlo yo'lsizlig'i uchun tashlanmoqdan boshqa chora qolmaydir. Emd chig'atoy imlosi atalg'an yangi imlog'a kelsak: bu imloning eski imlodan ayruluvi olti cho'zgini qabul etu, so'zlarni qalin, ingichkalikka bo'lub yozuvda alif (l) o'rinda hamza (ا) ishlatu bilandir. Har holda bu imlo eski imlodan ko'b yuqori tutilmada, buning kamchiliklarini va yanglishlarini ko'rgach aningda tuzatilib yo'lg'a solinmog'i lozim keladur. Zero, bu imloda ko'rsatilgan yo'lcha ketganda ham kishi qiyinlikdan qutulmaydir. Buningda orag'a eskilikni suqub, eskilikni saqlag'an o'runklar ko'b uchraydir [1].

Toshkent maorif sho'basi vakili Abdulmannon yangi ochilgan maktablarga muallimlar yetishmasligi sababli diniy ilmi

bor kishilar ham tayinlangani, lekin ularning aksariyati yangi imloga qarshi bo'lganini aytadi [1].

Ashurali Zohiriy ham gazetalardagi xatoliklarni tanqid qilgan ekan, imlo tuzishdagi kamchiliklar xususida gapiradi, barcha turkiy xalqlar uchun yagona imlo bo'lish kerakligini aytadi: “Buning uchun siz “Tatariston”, “Turkiston”, “Zarafshon” gazetalari ham “Bizning bayroq” gazetasining 16 nchi nomerida Fotih Sayfi Qozonlining “Boshqirdiston maorif ilmiy markazining imlo ham sarf loyihasi” degan maqolasini bir yerga yig'ib qarasangiz, har yerda turlicha ekanligini va turlicha hal qilinganligini ko'rasiz. Mana sizga yangi imloning qandoq “jarayon hol” olg'oni! Ham yangi imlo qo'llanish orqasida bo'lg'on imlo birligi! U birlik o'rta imloda edi. Imlo o'zgarilgan va isloh qilingan sur'atda hamma turk qavminiki bir xil bo'lsun edi [1]. U taniqli uch gazetaning turlicha imloda nashr qilinishidan afsuslanadi: “Imlodagi birlik va mut tahid frunt tarafdari bo'lg'onlig'imizdan “Turkiston” bir yo'lda, “Zarafshon” boshqa yo'lda, “Farg'ona” yana bir boshqa yo'lda bo'lg'onlig'i, Turkistonda chiqadurg'on uch dona o'zbek gazetasining uch ko'cha boshida turishi yurakni achitadi” [1].

Sh.Bobomurodova o'sha davrda imlo masalasida quyidagi oqimlar mavjudligini qayd etgan:

“1. Hech bir usulga va qoidaga rioya qilmasdan qadimiy imlo asosida yozmoq tarafdorlari bo'lmish qadimchilar;

2. Turkiy so'zlarni usuli savtiya (tovush usuli) asosida eshritilgan, arabiy so'zlarni esa o'z imlosi bilan yozmoq tarafdorlari;

3. Turkiy va arabiy so'zlarning hammasini tovush usuli bilan yozmoq tarafdorlari;

4. Turkiy tilimizda yot bo'lgan harflarni butunlay chiqarib, arab so'zlarini ham o'z tovushlarimiz bilan yozmoq tarafdorlari;

5. Arab harflarini butunlay tashlab, uning o'rniga lotin yozuvini qabul etmoq tarafdorlari”[2].

Bu oqimlar o'rtasida turlicha qarashlar, qizg'in bahs-munozaralar, tortishuvlar, kerak bo'lsa, murosasiz kurashlar millat fidoyilarining mazkur masalaga befarq emasligi, millat ravnaqi uchun har qanday sinovlarga tayyor ekanligidan dalolatdir. To'g'ri, yuqoridagi oqimlarning barchasiga ijobiy baho berib bo'lmaydi. Masalan, birinchi oqim tarfdorlari “qadimchilar” nomi bilan mashhur bo'lib, ular yozuvni ham, imloni ham o'zgartirishga tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lganlar. Ikkinchi oqim tarafdorlari “o'rta imlochilar” nomini olgan Ashurali Zohiriy, Munavvar qori va ularning hamfikrlari edi. Ziyolilarning bu guruhi turkiy so'zlarni eshritilgan yozish, ya'ni unilarni ham yozuvda ifoda etishni yoqlagan holda, arabcha so'zlarni asl holicha, ular qaysi harflar bilan yozilgan bo'lsa, o'zgartmay yozishni talab qilar edilar. “Jumladan, harflar to'g'risida eng oldin alarni ikkiga bo'lub, yot turli ostida ataydurlar. Yot harf deganlari arabcha, forscha, ruscha so'zlarda ishlatilaturg'on غ ظ ط ض ص ر ث ذ harflari bo'lub ularning qo'noq (mehmon) bo'lg'onliklari uchun turkcha harflardan yuqori o'run berib turkcha uchun kelaturg'on kalakalarning boshlarida sinmasliklarini istaydurlar” [3].

Ko'rib turganimizdek, imlo masalasida turlicha qarashlar mavjud rdi. Lekin Elbek to'g'ri ta'kidlaganidek “...bizning ta'qib etgan yo'limiz bu emas, ya'ni har bir so'zni eshritilganicha ham olish emas! Balkim bir qoidaga so'qilg'on hamda xalqqa yaqin bir adabiy til yurgizishdir” [1].

Tahlil va natijalar. Ana shunday bahs-munozaralar, matbuotda bildirilgan fikrlar asosida yana bir imlo loyihasi yaratiladi. Mazkur loyiha 1926-yilda “Maorif va o'qutg'uchi” jurnalining 7-8-sonlarida e'lon qilinadi.

Mazkur loyihani ham qo'yilgan talablarga javob beradigan imlo qoidalari deb ayta olmaymiz, chunki qoidalarda asosan singarmonizm qonuniyatiga asosiy e'tibor qaratilib, fe'llarning, qisman ismlarning qalinlik, ingichkalikka amal qilgan holda to'g'ri yozilish qoidalari xususida so'z yuritiladi.

Imlo qoidalari tuzishda qaysi jihatni (fonetik – savtiy, morfologik – sarfiy) asos qilib olish masalasida ham jadidlar o'rtasida jiddiy munozaralar bo'ladi. Masalan, Shokirjon Rahimiy milliy imlo uchun asos fonetika, ya'ni eshritilgan yozish asos bo'ladi degan fikrni ilgari suradi, lekin bu prinsip har doim ham to'g'ri emasligi, chunki bir o'rinda bir xil, boshqa o'rinda boshqacha yoziladigan so'zlar mavjudligini aytadi. Agar yolg'iz fonetikaga asoslanilsa, yuqoridagi holat bo'yicha anarxiya yuzaga kelishini, shu sababli imloda eshritilgan yozish bilan birga, sarfiy (morfologik) asosga rioya qilish lozim deydi [4].

Shuning uchun ham mazkur qoidalarni tuzishda asosan ikki usul – savtiy (fonetik), sarfiy (etimologik – morfologik) amal qilinishi, tilimizda bir qancha shevalar (lahjalar – I.A.) bo'lganligi sababli ta'lim-tarbiya ishlarida yengillik bo'lishi uchun har ikki usuldan foydalanishga qaror qilingani aytiladi.

Singarmonizm qonuniyati barcha turkiy tillar uchun xos bo'lgani uchun o'zbek tilida ham e'tirof etishga, uni imlo qoidalariga kiritishga harakat qilishgan. Shu sababli qoidaning birinchi fali singarmonizمنىing qo'llanilishiga bag'ishlangan. Ma'lumki, singarmonizmga munosabat masalasida jadidlar o'rtasida turli qarashlar mavjud edi.

Abdurahim Yo'ldosh singarmonizmga munosabatda bo'lganlarni ikki guruhga ajratadi:

Singarmonizmni temir qonuniyat deb atovchilar, tildagi barcha so'zlarni yuz foiz shu qonunga bo'ysundiruvchilar.

O'z so'zlarimizni bu qonunga bo'ysundirib, chet so'zlarni mumkin qadar singarmonizmga moslab, qolganlariga eshritilgan yozuvchilar.

Birinchi guruhi u “100 pirasanchilar”, ikkinchi guruhi “istisnochilar” deb ataydi [5]. Uning o'zi har ikki guruhga ham qo'shilmaligi, har ikki guruh fikrlariga qisman qo'shiladigan, ularni qisman tanqid qiladigan o'rinlari borligini aytadi [5].

Najib Osim Abdurahim Yo'ldoshning bu fikrlariga munosabat bildirib, uning o'zi ham asli istisnochilar toifasidan ekanini aytadi: “Yo'ldashev “mumkin qadar”chilarg'a hujum qiladi. Halbuki, o'zining ham shular qatrig'a kirib qalganini sezmaydi. Yo'ldashev va Yo'ldashevning tarafdorlari “mumkin qadar”chilarning bir guruhini tashkil qilg'ani kabi, ularning o'rtasida shunga o'xshag'an guruhlar az emas”[6].

Shuni ta'kidlash joizki, singarmonizm qonuniga nafaqat o'zbek ziyolilari, balki qardosh turkiylar orasida ham qarshi chiquvchilar bo'lgan. Otajon Hoshimning fikricha, qarshi chiquvchilar o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar orasida bo'lmasa ham, ozarbayjon o'rtoqlar orasida bor. Albatta, singarmonizm qonuniga qarshi chiqish boshqa, to'g'ri dalillar bilan bu qonunning yo'qligini isbot etish boshqa. Qarshi chiquvchilar fikrini shunday ifodalaydi: “Til barg'an sari o'zgarganidek, singarmonizm ham o'zgaradi va o'zgargandir; bu o'zgarish shunday natijaga olib keladiki, singarmonizm kuchli qanun bo'lmay qaladi va undan keyin unga suyanish yaramaydi”[6]. Otajon Hoshim bunday fikrga qarshi chiqib, alifboni kelgusidagi emas, hozirgi tilimizga asos qilishimiz kerakligini aytadi.

Turli fikrlar, bahs-munozaralardan so'ng chetdan kirgan so'zlarning mazkur qoidaga bo'sundirish masalasida qat'iy qarorga kelinmasdan, ba'zi o'rinlarda istisnolar, ya'ni ko'p so'zlarni bu qonuniyatdan tashqari hisoblash haqida qaror qabul qilinadi. Albatta, istisnolarga yo'l qo'yilishi natijasida imlo qoidasining ishonchiliga rahna soladi. Jadid ma'rifatparvari Ibrohim Tohiriy aytganidek: “qoidalar tuzganda har xil istisnolardan saqlanish kerak, chunki istisno degan narsa qoidani buzadi, bo'shasdiradi, qoidaga o'quchining imoni bitadi” [1].

Ikkinchi munozarali masala lab ohangi masalasi edi. Imlo qoidalarini belgilashda ikkinchi munozarali masala lab ohangi masalasi edi. Fitrat, Qayum Ramazonlar qoida tuzishda, bir tomondan, turkiy tillar ta'siriga berilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular ko'proq mumtoz asarlar tilini e'tiborga oldilar. Ular o'zlarining til saboqlarida “tub so'zlarning birinchi bo'g'inida o'tru (ya'ni, o', u) bo'lsa, ikkinchi bo'g'inida ham o'tru berish kerak” degan qoidani ilgari surdilar.

Bizga ma'lumki, lab ohangi yozma manbalarda to'liq bo'lmasa-da, ma'lum darajada saqlangani tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan. Turkiyshunos olim A.Shcherbak lab garmoniyasi, asosan, yopiq bo'g'inli so'zlarda qat'iy saqlanganini, boshqa holatlarda bu qonuniyatning buzilishini aytib o'tadi [8]. Alisher Navoiy asarlari tilida ham lab uyg'unligi to'liq saqlangani aytiladi [9].

H.Ne'matov ham lab uyg'unligiga to'liq amal qilinmaganligini, adiblar vazn talabiga yoki shevalar ta'sirida so'zlarning turlicha yozilganini (qolum – qolym, ozum – ozim, konglum – konglim kabi) aytadi [10].

Singarmonizمنىing yo'g'on-ingichkalik ko'rinishiga ijobiy munosabatda bo'lgan Elbek lab ohangini “bir talay tartishishg'a sabab bo'laturg'an masalalar qatrig'a” kiritadi. Lab ohangi qirg'iz, usmonli turk shevalarida to'liq saqlangani, lekin o'zbek tili lab ohangidan butunlay uzoqlashganini ta'kidlaydi [1]. U singarmonizmni o'zbek adabiy tilining tub qoidasi deb qabul qilish, imlodagi o'zboshimchaliklarni yo'qotish uchun singarmonizmni 100 foiz amalga oshirish, o'zbek tilidagi barcha so'zlarni mazkur qoidaga bo'ysundirish, lab ohangi faqat birinchi bo'g'indagina bo'lishini qoidaga kiritish kabi takliflarni ilgari suradi [1].

Yuqoridagilarni inobatga olib, Elbek aytganidek, lab ohangi birinchi hijodan nariga o'tmagan kabi fikrlar to'g'ri emas. Chunki birinchi bo'g'indagi lablangan unli ikkinchi va keyingi bo'g'inlardagi unilarni o'ziga moslashtirganini klassik adiblar asarlaridan istagancha misol keltirish mumkin. Yuqoridagi

“ko'nglin, kuyib, o'ttiz” kabi so'zlarda lablangan unli ta'sirida unga moslashishi eski o'zbek tilida qonuniyat bo'lgan. Elbek o'zi yozganidek, yuqoridagi misollarni qo'lyozma manbalardan emas, balki xalq og'zidan ko'chirilgan dostonlardan olgan. Xalq og'zaki ijodida, o'z-o'zidan, shevalar ta'siri kuchli bo'ladi, ular orqali til qonuniyatlari xususida fikr yuritish yanglish xulosalarga olib kelish mumkin. Shuning uchun ham Fitrat, Q.Ramazonlarning lab ohangi masalasida ko'proq mumtoz asarlar tilini e'tiborga olishi va o'zlarining til saboqlarida “tub so'zlarning birinchi bo'g'inida o'tru (ya'ni o',u) bo'lsa, ikkinchi bo'g'inida ham o'tru berish kerak” degan qoidani ilgari surishi ilmiy jihatdan asosli edi, chunki tilshunoslikka oid asarlarning barchasida tilshunos olimlar o'z qarashlari, fikr-mulohazalarini klassik adiblar asarlari misolida asoslashga harakat qilganlar.

Umuman, lab ohangi masalasida iloji boricha muammo tug'dirmaslikka, lab ohangi bo'ysunuvchi so'zlarni ham yagona qoidaga kiritishga harakat qilingan: “bol, kor, sor kabi o'turli tublarda, lab ahani nuqtasidan bolur, koryr, sorur kabi yazish muvafiq bo'lsa-da, imlada vahid qanun uchun bolar, korer, sorar kabi yaziladirlar. Masalan: korermon, korerisiz (ingichka) – sorarsan, sorarmyz (qalin)” yoki: “O'turli tublardan so'ng: synlr, lyk, luq eshitilsa-da (oqujsan, oqujluk kabi), bir turli yaziladir. Masalan: korerlik, kersinlr (ingichka) – sorajlyq, sorasynlr (qalin)” [1].

Qoidalarda tovush o'zgarishlariga qisqa bo'lsa ham, munosabat bildirilgan:

“Sag'ir tavushlardan so'ng qac, gac kabi eshitilsa-da, qac, kac kabi yaziladir. Masalan: qatqac, ketkac” [1]. Lekin bu qoida “Agar fe'lining tubi (koren)da so'ngg'i tavush sag'ir samt (глых., согл.) bo'lsa, bu qo'shimchalar tim-тым, tiq-тық, ti-ты ishlatiladirlar. Amma imlada yagona (vahid) qanun yaratmaq uchun sarfiy usulda hamma yerda dim, dym, diq, dyq, di, dy yaziladir” degan qoidaga zid hisoblanadi. Aslida qatqac, ketkac so'zlari qo'shimchalaridagi jarangsiz undoshlar jarangli yozilishi kerak edi, shunda yagona qoidaga amal qilingan bo'lar edi.

Quyidagi qoida esa yuqoridagi qoidaga zid tarzda berilgan:

“Sag'ir samtlardan so'ng qan, kan kabi eshitilsa-da, qan, gan yaziladir. Masalan: qatqan, kelgan [1, 63]. Bizningcha, kelgan so'zidagi l jarangli undoshi o'rinda t jarangsiz undoshi bo'lishi kerak edi, shunda qoida to'g'ri bo'lar edi, chunki qoidada “sag'ir samtlardan so'ng”, ya'ni jarangsiz undoshlardan so'ng deyilyapti. Jarangli undoshdan so'ng qo'shimchaning jarangli bo'lishi tabiiy hol. Misollar qog'ozga tushirilayotganda xatolik bo'lgan bo'lishi mumkin, nazarimizda.

Quyidagi qoida esa yuqoridagilarga nisbatan istisno sifatida beriladi: “Iki o'g-tavushi arqama-arqa kelsa, ikavi ham q-k ga aylanadi: Tyg – tykkan, Tuq – tuqqan” [1]. Mazkur qoida 1956-yilda tasdiqlangan kirill alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi imlo qoidalarining 34-faslda beriladi:) g' yoki g bilan tugagan so'zlarga g bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilganda, so'z

oxiri va qo'shimcha boshidagi undoshlar, aytilishiga mos holda yoziladi: bog'-boqqa, tog'-toqqa, barg-barkka, teg-tekkkan kabi [11]. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, 1956-yilda tasdiqlangan imlo qoidalarini tuzishda jadidlar tomonidan tuzilgan imlodan ham foydalanilgan.

1995-yilda tasdiqlangan imlo qoidalarida esa bu qoida fonetik usulda emas, balki morfologik usul asosida qoidalashtirilgan: “v) qolgan barcha hollarda, so'z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo'shimchalarning bosh tovushi k yoki q aytilishidan qat'i nazar, g yoziladi: bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha kabi” [12]. Amaldagi imlo qoidalarining mazkur bandi bo'yicha ba'zi e'tirozlar, tushunmovchiklar mavjud. Masalan, chiqquncha bilan sig'guncha o'rtasida qanday farq bor? Bog'ga, tog'ga tarzidagi talaffuz sun'iylikni keltirib chiqarmaydimi? Fikrimizcha, jadidlar tuzgan hamda 1956-yildagi imlo qoidalaridagi shu qoida to'g'ri bo'lgan.

O'zak va qo'shimchaga ajralmaydigan holga kelgan so'zlar haqida ham alohida qoida keltiriladi: “fe'llardan yasalg'an bo'lub-da, bugun tahajjur etkan (остывший) shakllar eshitilganча yaziladir. Masalan: koryk, qoruq, turoqun. Bu so'zlardagi -yk, -uq, -oqun qo'shmachalari bugun o'luk bo'lg'an sababdan ahangga tabe qilinib, eshitilganча yazilib, sarfiy usulga uymaydir, shuningdek, Tyrsyn kabi ismlar ham qo'shmachalari syn bugun hayotda bo'lsa-da, o'zlari ism bo'lub tahajjur etkan uchun eshitilganча yaziladir” [1].

“Umumiy qoidalar” qismida “j” (hamza) belgisiga to'xtalilib, lotin alifbosida uning chiqarilishi aytiladi. Mazkur imlo qoidalaridagi eng muhim band sifatida ushbu qoidani keltirish lozim: “Har bir eshitilgan samtlar yaziladir. Ilgarigi bo'lg'an “yapiq hijada (ع) yazilmaydir” kabi qaidalar yo'qatiladir” [1]. Bu turkiy tillar, jumladan o'zbek tili uchun eng muhim qoida.

Ma'lumki, arab va fors tillarida uzun va qisqa unlilar alohida farqlanadi, uzun unlilar yozuvda ifodalangani holda, qisqa unlilar yozilmaydi. Uzoq yillar arab yozuvi bizning asosiy yozuvimiz sifatida ishlatilib kelinib, u tildagi qoidalar ham kirib qolgan edi. Shu tariqa arab yozuvidagi o'zbek yozuvlarida qisqa unlilarning ifodalanmasligi oddiy holga aylangan. Jadidlar mazkur qoida bilan o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatini, o'zbek tilida nechta tovush eshitilsa, barchasi yozuvda aks etishini qoidalashtirilgan.

Xulosa. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, “Yangi o'zbek alifbasida imla qaidalari” loyihasi jiddiy kamchiliklardan holi emas, lekin uni dastlabki tajriba sifatida e'tirof etish mumkin. “Buzuq, qoidasiz” (Fitrat) bo'lgan tilni ma'lum qoidalarga solish, bu yo'lda ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lish, boshqa tillar tajribalari bilan yaqindan tanishgan bo'lish lozim edi. Lekin jadidlar bu harakat bilan to'xtab qolmadilar. Oldinda esa yanada takomillashgan imlo qoidalarini tuzish vazifasi turar edi.

ADABIYOTLAR

1. Жамолхонов Х., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. Мажмуа. I китоб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2017.
2. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожда Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2002.
3. Elbek. Imla masalalari // Ishtirakiyun, 1920-yil, 18-sentabr.
4. Shakir Rahim. Imla masalasida bir-ikki so'z. // Qizil O'zbekistan, 1929-yil, 12-may (arab yozuvida)
5. Y.Yo'ldash. Til, atama va imla bahslari. Imla va yozuvni soddalashtirish tevaragida // Qizil O'zbekistan, 1929-yil 6-fevral (arab yozuvida).
6. Najib Asim. Yuz pro'sent singarmo'nizim, 9 cho'zg'i va o'zaklarda lab ahanini saqlash uchun // Sharq haqiqati, 1929-yil. – 28-san.
7. Atajif. Baku plenumi natijalari // Maorif va o'qitg'uchi. – Tashkent, 1927. – № 7-8.
8. Шербаков А.М. Грамматика староузбекского языка. – Москва – Ленинград, 1962.
9. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984.
10. Нейматов Х. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
11. <https://azkurs.org/1-kirilcha-ozbek-yozuvining-imlo-qoidalari-lotinch-ozbek-yozu.html>
12. <https://lex.uz/docs/-1625271>